Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

"SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDAGI FORS-TOJIKCHA RAVISHLARNING SEMANTIK MAYDONI HAQIDA

Zarifaxon Vaxobovna Alimova*
FarDU tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
✉ sarvar090701@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan fors-tojikcha ravishlarning leksik-semantik, morfologik va funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Asarda uchraydigan ravishlar semantik jihatdan holat, payt, o'rin, daraja-miqdor hamda sabab ravishlariga tasniflanib, ularning yasalish usullari, grammatik tabiati va badiiy matndagi uslubiy vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida fors tilidagi ravishlarning o'zgarmas so'z turkumi ekani, prefiks va suffikslar yordamida hosil bo'lish xususiyatlari hamda eski o'zbek adabiy tilida kontekstual konversiya asosida ravish vazifasida qo'llanishi dalillar asosida yoritiladi. Tahlillar natijasida Navoiy dostonida fors-tojikcha ravishlar nafaqat harakatning belgisini ifodalashi, balki obrazlilikni kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni ta'minlash va muallif badiiy uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar

fors-tojikcha ravishlar, holat ravishi, payt ravishi, o'rin ravishi, daraja-miqdor ravishi, sabab ravishi, semantika, morfologiya, kontekstual konversiya, stilistika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743037

KIRISH

Alisher Navoiy asarlari eski o'zbek adabiy tilining grammatik va leksik taraqqiyotini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shoir ijodida turkiy qatlam bilan bir qatorda fors-tojik tiliga mansub ko'plab leksik birliklar faol qo'llanilgan bo'lib, ular badiiy matnning mazmuniy va uslubiy mukammalligini ta'minlashda muhim vazifa bajaradi. Ayniqsa, fors-tojikcha ravishlar harakatning holati, usuli, vaqti, o'rni, darajasi hamda sababini ifodalash orqali doston poetikasining muhim grammatik va stilistik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Fors tilida ravish mustaqil so'z turkumi bo'lib, o'zgarmasligi, maxsus prefiks va affikslar vositasida yasalishi hamda gapda asosan hol vazifasida kelishi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar o'zbek tilidagi ravishlarning grammatik tabiatiga ham yaqin bo'lib, ikki til o'rtasidagi tarixiy til aloqalarining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Navoiy asarlarida uchraydigan fors-tojikcha ravishlarni morfologik va semantik jihatdan tadqiq etish nafaqat tarixiy leksikologiya, balki o'zbek tilining grammatik taraqqiyotini yoritishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni shoirning turkiy tilda yozilgan noyob durdonalaridan biridir. Bu doston haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko'prulu, A.S.Levend, K. Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliyev; o'zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, Sodir Erkinov, S.Nazrullaeva, A.Abdug'afurov, M.Hakimov, S.Hasanov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari ma'lum.

Fors tilida ravish boshqa so‘z turkumlari singari o‘zbek tili grammatik qonunlariga juda mos tushadi. N.Beryozinning ta’kidlashicha, “fors tilidagi ravishning o‘ziga xos morfologik belgilaridan biri uning o‘zgarmas ekanligidir” [375-79]. V.A.Jukovskiyning fikricha, “ravish biror so‘z bilan bog‘lanib, birikma hosil qilganda u o‘z shaklini o‘zgartirmaydi, hech qanday so‘z o‘zgartiruvchi affiks qabul qilmaydi” [4, 34]. Ravishning yana bir morfologik belgisi uning o‘ziga xos qo‘shimchalarga ega bo‘lishidir. Fors tilida ravishlar yasalishida prefikslar, affikslar keng ko‘lamda ishlatiladi. Yu.Rubinchikning qayd etishicha, “predloglardan *bo, be, dar, az,* prefikslardan *no-, bi-,* affikslardan *–on, -ki, -ona, -ho, -goh* va boshqalar asosida hosil bo‘lgan ravishlar murakkab ravishlar deb nomlanadi” [6, 380]. Fors tili grammatikasi bo‘yicha qilingan ishlarning ba’zi bir mualliflari ravishni mustaqil so‘z turkumi deb hisoblamaydilar. Vaholanki, hozirgi zamon fors tilida ravish mustaqil so‘z turkumi hisoblanadi va o‘zining semantikasiga, morfologik va sintaktik xususiyatlariga egadir.

O‘zbek tilida ravishlarning quyidagi ma’noviy turlari mavjud: ***holat*** (tarz) ***ravishlari*** (tez, sekin, piyoda kabi); ***o‘rin ravishlari*** (uzoqda, yaqindan, pastda kabi); payt ravishlari (hozir, kecha, bugun kabi); ***daraja-miqdor ravishlari*** (ancha, sal, kam kabi); ***maqsad ravishlari*** (ataylab, jo‘rttaga kabi); ***sabab ravishlari*** (noiloj, ilojsiz, chorasizlikdan kabi). Payt, o‘rin va maqsad ravishlaridan boshqa barcha ravishlarni, eng umumiy xususiyatlariga ko‘ra, bir turga kiritish va ularni holat (tarz) ravishlari deb atash mumkin.

“Saddi Iskandariy” dostonidagi fors-tojikcha ravishlarni quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratish mumkin.

1. **Holat ravishi:** *shodmon (13), tez (30), ravon (43), mardona (2), rasulona (payg‘ambarona, elchilikka yarasha:3), haroson (8), mo‘kashon (1), nihon (81), oshkoro (19), pinhoniy (2), sarbaland (4), oson (23), yakdil (1), yakjihat (1), nahangona (nahangchasiga; dovyuraklik bilan:1), zo‘r (24), puxta (2), tez (30), pomol (oyoq osti qilingan:4), tund (tez, shiddatli; o‘tkir, achchiq; g‘zabli:21), farzonavor (oqilona, ziyraklarcha:1), xusravona (shohlarga xos:1), faqirona (faqirlarcha; kamtarlik bilan:1), g‘aribona (g‘ariblarcha:1), sarosar (boshdan oyoq:18), harifona (do‘stlarcha:1), darang (sekin, asta:15), payopay (ketma-ket, uzluksiz, birin-ketin:7), yako-yak (birma-bir:1).*
2. **Payt ravishi:** *goh (13), gohi (9), gah (9), gahi (37), hargiz (7), dam (97), nogahon (9), holo (5), moh (2), sol (2), ro‘z (9), hamisha (har doim, har vaqt:3), naxust* (avval, boshdan; burun:1), *yaksar* (birdan, birdaniga, to‘satdan:1), *subhgoh* (ertalab, erta tongda:1), *shabona* (kechasi, kechalik:1), *shom* (kechki payt, kecqurun; tun, kecha:22), *hanuz* (haligacha, shu paytgacha:3).
3. **O‘rin ravishi:** *gulshan(da), charx (aro), dargah (-ga, -da), xarobot (aro), zarrot (aro), dargah (ingda), shabiston (g‘a), darmiyon (o‘rtada, orada), jobajo (joy-joyida, tamomila; o‘z o‘rniga qo‘yish:1).*
4. **Daraja-miqdor ravishi:** *behad (nihoyatda, cheksiz:30), bisyor (ko‘p, juda, ziyod:1), besh (ko‘p, ortiq, ziyod), besh-u kam (ko‘p-u oz 4), kam (kam, oz: 24), kamo-besh (kam-u ko‘p:1), yako-yak (birin-ketin, bittadan:1), yak-bayak (birma-bir, tamoman, butunlay:2), sarbasar (boshdan-oyoq, boricha), base (ko‘p, benihoya; hargiz, sira: 98), baso (ko‘p, ancha, bir qancha:5).*
5. **Sabab ravishi:** *bekor (behuda:1), noguzir (ilojsizlikdan, nochor:7), ogohvor (ogohlik bilan:1).*

Ushbu o‘rinda mazkur guruhlarga oid ravishlarning tanlangan namunalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblandi. Alisher Navoiy asarlaridagi *haroson* ravishi shoir tomonidan ko‘p qo‘llangan leksemalardandir. Xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida mazkur so‘z to‘qqiz o‘rinda qo‘llangan. Dostonda keltirilgan ushbu so‘z morfologik jihatdan turli so‘z turkumlari vazifasini bajargan:

Muning vahshatig‘a chub bor ittilo’,
***Haroson** kerak erdi mundin tibo’*(SI.182).

Mazmuni: *Buning dahshatini ko‘rib-bilib turgan odamning tabiati nega bundan cho‘chimaydi?* (SI. nasriy bayon, 29). Mazkur bayt mazmunidan ko‘rinib turibdiki, “haroson” leksik birligi kontekstda asosan *cho‘chimoq, qo‘rqmoq* ma’nolarini ifodalaydi [2, 165]. Asarning nasriy bayonida ushbu so‘z fe’lga xos vazifani bajarib, subyektning holatini bildiruvchi hol fe’l shakli sifatida talqin qilinadi. Biroq matnning nazmiy bayonida “haroson”ning semantik yuklanishi o‘zgarib, u “qo‘rquv, qo‘rqish holati” ma’nosini ifodalovchi abstrakt ot sifatida namoyon bo‘ladi.

A.A.Rizayeva fors tilida leksik yo‘l bilan hosil bo‘lgan ravishlar qatorida *haroson* (*qo‘rquv bilan*) so‘zini ham keltirib, bunday ravishlar fors tilida bir kategoriyadan boshqa bir kategoriyaga o‘tuvchi (adverbial) so‘zlar ekanligini, o‘tgan zamon va hozirgi zamon sifatdoshlari, ravishdoshlar ham gapda ravish vazifasida kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan: گریزان go‘rizon – chopgancha, chopib; هراسان haroson – qo‘rqqancha, qo‘rquv bilan; گریان geryon – yig‘lagancha, yig‘lab va hokazo [5, 5].

*Yigitlikta ish kasbi **oson**durur,*

*Nedin tab’i andin **haroson**durur* (SI. 230).

Mazmuni: *Yigit kishiga ishlash va kasb-hunar qilish og‘ir bo‘lmaydi-yu, ammo nima uchun yoshlar mehnat qilishdan qochadilar?*(SI. nasriy bayon, 211). Fikrimizcha, mazkur baytning nasriy bayoni biroz noto‘g‘ri izohlangan. Ya’ni **haroson** so‘zi *qochmoq* ma’nosida emas, *qo‘rqmoq, cho‘chimoq* ma’nosida izohlanganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Navoiy, so‘z ayturda farzona bo‘l,

*Chu ish boshingga tushti, **mardona** bo‘l!* (SI. 55).

She’riy baytdagi ***mardona*** “mardga xos”, “jasoratli”, “qo‘rqmas”, “dadil”, “qat’iyatli” degan ma’nolarni bildiradi [8, 492]. O‘zbek tilida bu so‘z metaforik sifat bo‘lib, faqat erkak kishiga emas, balki har qanday insonning jasoratini ta’riflash uchun ishlatiladi. ***Mardona*** leksemasi asosi ***mard*** (ot) bo‘lib, unga ***-ona*** ravish yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan.

Quyidagi baytda qo‘llangan ***shodmon*** leksemasi o‘zining dastlabki leksik-ma’no jihatidan sifat turkumiga mansub bo‘lishiga qaramay, kontekstual qo‘llanishda ravish vazifasida namoyon bo‘lgan. Ya’ni u fe’l tomonidan ifodalangan harakatning holatini bildiradi va *kontekstual konversiya* (funksional o‘tish) hodisasi asosida ravishlik ma’nosini kasb etadi. Shu tariqa “shodmon” leksemasi *quvonch bilan, shod hold*a tarzidagi hol ma’nosini ifodalaydi [8, 84].

Mazkur dostonda **ogohvor** (ogohlik bilan) leksemasi bir marta uchraydi va u holat ravishi vazifasini bajaradi:

*Sochib borchasin shahg‘a **ogohvor**, Bori durlarin aylagay shohvor* (SI.387-388).

Ogohvor ravishi harakatning qanday usulda amalga oshirilishini bildiradi. U baytda hushyorlik bilan ma’nosini ifodalaydi [1, 502]. Struktur jihatdan *ogohvor* ravishi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan: *ogoh* — forscha sifat, “xabardor, hushyor” ma’nosida; *-vor* fors-tojik tilidan o‘zlashgan qo‘shimcha bo‘lib, *o‘xshashlik, tarz, usul* ma’nosini bildiradi. *Ogohvor* yasama ravish bo‘lib, sifat asosiga *-vor* affiksi qo‘shilishi orqali hosil qilingan. Funksional jihatdan *ogohvor* ravishi fe’l (sochib) bilan bog‘lanib, harakatning holatini aniqlaydi. Shuningdek, u mazkur kontekstda ish-harakatning ongli, tartibli va mas’uliyat bilan bajarilayotganini ta’kidlaydi.

Dostonda **mo‘kashon** leksemasi bir marotaba uchraydi. ANATIL izohli lug‘atida qayd etilishicha, mazkur leksema *“sochdan tortgan holda, sochidan sudrab”* ma’nosini ifodalaydi [1, 413]. Ushbu ma’no doston matnidagi kontekst bilan to‘la mos kelib, obrazning dramatik va emotsional ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi: *Nechuk bo‘lmay ohimdin otashfishon, Menikim ajal eltgay **mo‘kashon*** (SI.9).

Mazmuni: *Meni ajal **sochimdan tortqilab** olib ketyapti, nechun ohimdan o‘t sochuvchi bo‘lmay* (shaxsiy bayon).

Mo‘kashon fors tilidan o‘zlashgan qo‘shma (murakkab) leksema bo‘lib, ikki komponentdan tashkil topgan: **mo‘**-*soch,* **kashon** esa **kashidan** (tortmoq) fe’lidan yasalgan sifatdosh bo‘lib, **kashon**- *tortuvchi, tortib boruvchi* ma’nosini bildiradi. Struktur jihatdan bu birlik fe’l asosli sifatdosh konstruksiya hisoblanadi. Semantik jihatdan ***mo‘kashon*** *sochini tortib borib, sochidan sudrab, sochi tortilgan holda* kabi ma’nolarni bildiradi, “*Menikim ajal eltgay mo‘kashon”* - “meni ajal sochimdan tortib olib ketar” mazmunini beradi. Funksional jihatdan “mo‘kashon” hol (tarz holi) vazifasida qo‘llangan, harakatning qanday tarzda amalga oshishini aniqlaydi, baytdagi emotsional kuch va dramatik ta’sirni keskin oshiradi.

*Birining mizojini **tez** aylading, Aning tab’ini **shu’laxez** aylading* (SI.5).

Baytdagi **tez** leksemasi ravish bo‘lib, harakatning bajarilish tezligini bildiradi.

Baytdagi “shu’laxez” so‘zi ravish vazifasida kelgan sifat bo‘lib, uning morfologik tarkibi arabcha *shu’la* (nurlanish, alanga) va forscha *xez* (*turmoq* fe’li hozirgi zamon asosi) birikmasidan hosil bo‘lgan. So‘z aslida sifat

(*shu'laga o'xshash, shu'la kabi*) bo'lsa-da, baytda ravish vazifasida kelgan. Forscha lug'atlarda *shu'laxez* leksemasining yana bir ma'nodoshi *shu'lavar* borligi, har ikki so'z ham *yonayotgan, alangalanib turgan, chaqnab turgan, charaqlayotgan* kabi ma'nolarni ifodalaydi [8, 103]. **Tez** ravishi doston matnida **32 marta** qayd etilgan.

Chust (darhol, to'xtovsiz; chaqqon, shaylangan, mahkam) leksemasi dostonda **30 marta** uchradi:

*Mahofa aro aylabon oni rust, Qadam qo'ydilar shah degan sori **chust*** (SI.422).

*Vale men qilib **puxta** tadbirlik, Chu boshimda erdi jahongirlik* (SI.276).

Puxta fors tilidan o'zlashgan sodda leksema bo'lib, o'zbek adabiy tilida keng qo'llanadi. Struktur jihatdan bo'linmas, mustaqil birlikdir. ANATILda ushbu leksemaning *pishiq, mahkam* ma'nolari qayd etilgan [1, 588]. Keyinchalik bu ma'no ko'chma ma'noda *mukammal, puxta o'ylangan, ishonchli, mustahkam* kabi ma'nolarga kengaygan [7, 274]. Funksional jihatdan sifat bo'lib, lirik qahramonning aql-zakovat va mas'uliyat bilan ish ko'rganini ta'kidlaydi, "jahongirlik" tushunchasiga asos va sabab bo'lib xizmat qiladi.

Doston matnida uchraydigan **yakdil** va **yakjihat** ravishlari *yak* (bir) sonining *dil* va *jihat* otlari bilan qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan murakkab leksik birliklar hisoblanadi: *Necha ming kishi **yakdil**u **yakjihat**, Jalodat kelib barchasig'a sifat* (SI.402).

Baytdagi *yakdil* semantik jihatdan *bir dilga ega bo'lgan, fikr va niyat jihatidan birlashgan, hamfikr* ma'nosini anglatadi [8, 747]. *Yakjihat* ham *hamfikr, bir dilga ega bo'lgan hamjihatlik bilan* degan ma'noni ifodalaydi. Struktur jihatdan *yakdil - yak* (son) + *dil* (ot), *yakjihat - yak* (son) + *jihat* (ot) ko'rinishidagi qo'shma so'zlar hisoblanadi. Funksional jihatdan harakatning qanday holatda amalga oshganini bildiradi, gapda hol bo'lagi funksiyasini bajaradi, badiiy matnda ta'sirchanlik va kuchaytirish vazifasini ham bajarib, xalqning birlashgan holatini obrazli ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llangan fors-tojikcha ravishlar Alisher Navoiyning badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim til birliklaridan biridir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ravishlar doston matnida nafaqat harakatning holati, payti, o'rni, daraja-miqdori va sababini ifodalash, balki obrazlarning ruhiy holati va voqealarning ta'sirchanligini kuchaytirish vazifasini ham bajargan. Forscha ravishlarning turli morfologik usullar orqali shakllanganligi va kontekstda turli vazifalarda qo'llanishi Navoiy tilining boyligi hamda rang-barangligini ko'rsatadi. Xususan, ayrim sifat va sifatdoshlarning ravish vazifasida kelishi til taraqqiyotidagi funksional o'zgarish jarayonlarini aks ettiradi. Shu jihatdan "Saddi Iskandariy" dostonidagi ravishlar nafaqat grammatik hodisa, balki asarning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. –Тошкент: Фан, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. –Тошкент: Фан, 1983.
3. Берёзин Н. Грамматика персидского языка. – Казань, 1963.
4. Жуковский В.А Краткая грамматика персидского языка. – Санкт Петербург: Типография Академии Наук, 1990.
5. Ризаева А.А. Наречия в современном персидском литературном языке (морфологические особенности): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Баку, 1963.
6. Рубинчик Ю. А. Грамматика современного персидского литературного языка. — М.: Восточная литература РАН, 2001.
7. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том. – М.: Русский язык, 1983.
8. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. II том. – М.: Русский язык, 1983.